

Andijon viloyati statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-oktabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
3286,7 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi – **3,2 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
– **73,0 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **23,8 %**

Andijon viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Andijon viloyatida jami **3286,7** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **110,5 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **104,1** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,2 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **108,4 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,0 %**ni yoki **2397,7** mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **122,9 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **23,8 %** yoki **784,9** mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **87,1 %**ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 104,1 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 108,4 %
- ulushi - 3,2 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 2397,7 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 122,9 %
- ulushi - 73,0%



Norasmiy sektor

- hajmi - 784,9 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 87,1 %
- ulushi - 23,8 %

Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **73,6** %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,4** % punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **9,2** % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6**% punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **17,2** % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2** % punktga kamaydi.



Yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **73,0** %ni (**9,6** % punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **23,8** %ni (**9,7** punktga kamaydi) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **7,6%**ni tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **92,2%** (2,0 punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,2 %**ni (4,9 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **14,4%** tashkil etdi va **1,1%** punktga ko'paydi. Qolgan **85,6 %**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamaydi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2019 yil yanvar-oktabr oylarida)

	Jami, mlrd.so`m	O`sinh sur`ati, %da	shu jumladan, mulkchilik shakllari bo`yicha	
			Davlat, %da	Nodavlat, %da
Viloyat bo`yicha:	3286,7	110,5	5,6	94,4
➤ Andijon shahar	1284,6	112,7	2,9	97,1
➤ Xonobod shahar	93,7	102,4	-	100,0
➤ Andijon tuman	353,9	126,7	4,2	95,8
➤ Asaka tuman	156,5	105,4	4,7	95,3
➤ Baliqchi tuman	85,7	172,6	8,6	91,4
➤ Bo`z tuman	117,0	89,1	6,3	93,7
➤ Buloqboshi tuman	49,0	107,2	15,0	85,0
➤ Jalalquduq tuman	130,2	103,1	21,5	78,5
➤ Izboskan tuman	129,4	118,3	5,7	94,3
➤ Ulug`nor tuman	60,6	109,3	39,5	60,5
➤ Marxamat tuman	134,2	104,3	5,5	94,5
➤ Oltinko`l tuman	188,3	98,5	3,9	96,1
➤ Paxtaobod tuman	127,1	100,4	5,8	94,2
➤ Xo`jaobod tuman	82,2	107,6	8,9	91,1
➤ Shaxrixon tuman	197,6	108,3	3,7	96,3
➤ Qo`rg`ontepa tuman	96,7	104,4	7,6	92,4

2019 yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2397,7** mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **73,0** %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **122,9** %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **23,8**%ni yoki **784,9** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **87,1** %ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **104,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **3,2** %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,4** %ni tashkil etdi.

Yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi sub'yektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, (%) da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida yuqori ko'rsatkich Andijon shahri (hududdagi qurilish hajmining **57,1** %ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **119,5**%ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari ulushi, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanidagi (hududdagi qurilish hajmining **16,0%**ini tashkil qilib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 foizga ko'paydi).

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish sur'atlari (o`tgani yilning mos davriga nisbatan % da),



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur'ati Andijon shahrida «Elektrqishloqqurilish» ochiq turdagi hissadorlik jamiyati koshidagi MK-1 **223,0%**ni tashkil qilib, o`tgani yildagi ko`rsatkichga nisbatan (**141,8** foizga ko`paydi). Bu korxonadan Elektr liniyalarni capital ta`mirlahs va rekonstruksiya qilihs.

2019 yilning yanvar- oktabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Andijon viloyati qurilish ishlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida katta ulushini asosan Andijon shahrida (**39,1 %**), Andijon tumanida (**10,8 %**) va Shaxrixon tumanida (**6,0 %**) kuzatildi.



Andijon viloyat statistika boshqarmasi
 Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev
 Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37